

PEDAGOGIK OLIY O'QUV YURTLARIDA HUQUQ FANLARINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA OID INNOVATSIYALAR

Narzullayev Asrorbek

GulDPI " Ijtimoiy gumnitar: huquq ta'limi " yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalarida huquq fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Mustaqil ta'limning o'quvchi-shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan modeli, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va interaktiv metodlarning o'rni yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakllari, refleksiv fikrlashni rivojlantirish yo'llari va zamonaviy ta'lim talablariga mos yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: huquq ta'limi, innovatsiya, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiya, raqamli platforma, interaktiv metod, kompetensiya.

ИННОВАЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРАВА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Аннотация: В статье анализируются инновационные подходы к эффективной организации процесса самостоятельного обучения при преподавании юридических дисциплин в педагогических вузах. Рассматриваются студентоцентрированная, компетентностная модель самостоятельного обучения, роль цифровых технологий, электронных образовательных платформ и интерактивных методов. Предлагаются новые формы взаимодействия преподавателей и студентов в процессе самостоятельного обучения, способы развития рефлексивного мышления и решения, отвечающие требованиям современного образования.

Ключевые слова: юридическое образование, инновации, самостоятельное обучение, педагогические технологии, цифровая платформа, интерактивный метод, компетентность.

INNOVATIONS IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN TEACHING LAW IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: This article analyzes innovative approaches to the effective organization of the independent learning process in teaching legal subjects in pedagogical higher educational institutions. The student-centered, competency-based model of independent learning, the role of digital technologies, e-learning platforms and interactive methods are highlighted. Also, new forms of cooperation between teachers

and students in independent learning, ways to develop reflective thinking and solutions that meet the requirements of modern education are proposed.

Keywords: *legal education, innovation, independent learning, pedagogical technology, digital platform, interactive method, competence.*

KIRISH

Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo'lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ustuvor vazifa etib belgilandi. Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida 2020-2021 o'quv yilidan mazkur tizim asosida o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi.

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabada o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishi. Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt me'yoriga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy shakllar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy-metodik kengashida va kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirish uning metodik ta'minlanishining temetikasi va shakllari ro'yxatini tuzish uchun har birining maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo'riqnoma yoki metodik tavsiyalar ishla chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash degani.

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya va auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Mustaqil ish- o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatdir.

Bizga ma'lumki, talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabaning mustaqil ta'limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida bevosita o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan bo'yicha mavzularni mustaqil o'qib-o'rganishi tarzida amalga oshiradigan o'quv ishlari majmuini anglatadi. Bu esa talabalarni o'z ustida ishlashini va individual tarzda bilim olishini taqozo etadi.

Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta'lim yo'nalishi hamda fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan fan dasturda ko'rsatilib o'tilishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o'quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi tavsiya etiladi. Fan bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi mas'ul kafedra muhokamasidan o'tkazilishi, yig'ilish qarori bilan tasdiqlanishi hamda professor-o'qituvchi tomonidan tuzilgan sillabusda mustaqil ish shakli va turi mazkur hajmga mos kelishi lozim.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarining mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davrining 1-semestrida o'qituvchi xodimlar va fan mas'ullari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada belgilanadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi. Uzrli sabablar esa dekanat tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan ruxsati bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv faoliyati natijalari baholanmagan talaba yakuniy nazoratlarga kiritilmaydi yoki shartli ravishda topshirish muddati belgilanadi. Fan (modul) bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollarining $\frac{1}{2}$ qismi mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular va adabiyotlar asosida tuzilishi tavsiya etiladi.

Fan (modul)ning auditoriya yuklamasini bajarish vaqtida talabalarining mustaqil ishlari nazorat qilinmaydi. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarish yuzasidan fan dasturda ko'rsatilgan kontakt soatida oflayn yoki onlayn tarzda bir yoki ikki marotaba maslahat olishi mumkin. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi shart. Fan(modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari har xil metodlarga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining $\frac{1}{3}$ qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Chunki, talabalar birgalikda ishlashsa, ular o'rtasidagi

munosabatlar yanada do'stona bo'ladi va ular o'rtasidagi fikr-almashish ularni yanada bilimlari va dunyoqarashlarini boyitadi.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari modulga ajratilgan kreditlar soni hamda talabaning vaqt byudjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim, talabalar shu vaqt davomida mustaqil ishlarini tayyorlab, elektron tizimga yuklanishi lozim. Talaba tomonidan elektron tizimga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma'lum qilinishi shart.

Mustaqil ta'lim natijalarini baholash fanning umumiy baholash (100 ballik) tizimda aks ettiriladi va fan dasturning baholash mezonlarida unga ajratilgan ball aniq ko'rsatib qo'yilishi lozim.

O'qishi ko'chirilgan yoki tiklangan talabalar o'zlashtirmagan modullarni qayta o'qish tartibda o'zlashtiradi. Istisno tariqasida, fanning semestrda yuqoridagi yuklamasi 6 kreditdan oshmaydigan akademik farqli modullar talabaning arizasiga ko'ra va dekan roziligi bilan 100% mustaqil ta'lim shaklida o'zlashtirilishi mumkin.

Talabaning mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy maqsad fan(modul) bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

XULOSA

Pedagogik oliy o'quv yurtlarida huquq fanlarini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish va uni innovatsion metodlar asosida takomillashtirish bugungi global ta'lim jarayonlarining eng dolzarb talablaridan biridir. Zamonaviy ta'lim talabalar oldiga keng ko'lamli vazifalarni qo'yadi: huquqiy qonunlarni bilish, tahlil qilish, hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, ijodiy fikrlash, muammoli holatlarda mustaqil qaror qabul qila olish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va eng muhimi, o'z ta'lim jarayonini o'zi boshqara olish. Shu bois mustaqil ta'lim pedagogik jarayonning markaziy qismiga aylanmoqda.

Birinchidan, huquq fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim talabalarni passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Talaba o'qituvchi bergan tayyor ma'lumotni yodlab olish yoki qayta aytish bilan cheklanib qolmaydi, balki mustaqil izlanadi, qonun hujjatlarini o'rganadi, o'zi tushungan xulosalarini shakllantiradi va amaliy vaziyatlarga qo'llashga harakat qiladi. Bu jarayon natijasida talabalarining huquqiy madaniyati, mas'uliyati va mustaqil fikrlashi yuqori darajada rivojlanadi.

Ikkinchidan, innovatsion ta'lim texnologiyalari – loyihaviy o'qitish, raqamli platformalar, simulyatsion sud jarayonlari, virtual treninglar, case-study, klaster va interaktiv metodlar – huquq fanlarini o'rganishga yangicha yondashuv yaratadi. Bu texnologiyalar mustaqil ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi, talabalarni axborot izlash, tahlil qilish, guruhda ishlash, muammoli vaziyatni baholash va qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etadi.

Uchinchidan, raqamli ta'lim imkoniyatlari mustaqil ta'lim sifatini tubdan oshirmoqda. Elektron darsliklar, onlayn testlar, vebinarlar, elektron kutubxonalar, e-platformalar (Moodle, Google Classroom, Ziyonet) talabalarning mustaqil o'qish jarayonini yengillashtiradi. Ayniqsa huquq fanlari uchun normativ-huquqiy hujjatlarning elektron bazalari, qonun tahlili dasturlari, virtual sud amaliyotlari katta o'quv imkoniyatini yaratadi. Talaba real hayotda uchrashi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarni virtual tarzda boshdan o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Oxir-oqibat, pedagogik oliy o'quv yurtlarida huquq fanlarini o'qitishda mustaqil ta'limni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'un holda tashkil etish – bugungi kun ta'limining strategik vazifasidir. Bu yondashuv:

- talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantiradi;
- ularni mustaqil izlanishga o'rgatadi;
- huquqiy fikrlashni kuchaytiradi;
- amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- jamiyatda huquqiy ong va madaniyat yuksalishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mustaqil ta'limning innovatsion shakllarini tatbiq etish nafaqat pedagogik oliy ta'lim tizimi rivoji, balki butun jamiyatning huquqiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy talablar darajasida tayyorlash va mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.2020 y.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori.
- 3.Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – B.3.
4. Xodjaev B.X . Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari. – T.: TDPU, 2010.
5. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar",Qarshi,"Nasaf".2000.
- 6.Sadriddinzoda Sh. Pedagogik texnologiya va uni amaliyotda kullash metodikasi. (Ma'ruzalar matni). Samarqand.: SAMVPKTMOI, 2004 y. 9-b.
- 7.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.: O'qituvchi, 1999 y. 12-b.